

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASISOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
OLIY VA O'RTA TIBBIYOT TA'LIMINIRIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT PEDIATRIYATIBBIYOT INSTITUTI

BOLALARDA OLIB BORILGAN ANTIBAKTERIAL TERAPIYANI
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

TIBBIYOT INSTITUTLARI TALABALARI UCHUN
O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT -2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASHVAZIRLIGI
OLIIY VA O'RTA TIBBIYOT TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»
O'zRSSHningkadrlarvao'quvmuassasalari
Bosh boshqarmasiboshlig'i
prof. Sh.Z. Ataxanov**

**«_____»_____2013 y
_____sonlibayonnoma**

**BOLALARDA OLIB BORILGAN ANTIBAKTERIAL TERAPIYA
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH
TIBBIYOT INSTITUTLARI TALABALARI UCHUN
O'QUV Q O'LLANMA**

TOSHKENT -2013

TUZUVCHILAR: ToshPMiklinikfarmakologiyakafedramudirasi,
dotsent N.V.Agzamova, dotsent B.A.Karabekova,
dotsent R.A.Azizova, dotsent M.I.Muhitdinova

TAQRIZCHILAR:

ToshPMIepidemiologiyavayuqumlikasalliklarkafedrasimudiri professorI.A.Qosimov
ToshPTIpoliklinikpediatriyakafedrasimudirasi,dotsentZ.A.Shomansurova
Epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumlikasalliklarITIdirektorio'rinbosari, professor
A.G. Valiyev
O'zbek, rusvalotintillfikafedrasimudirasi,dotsentK.Sh.Turdiyeva

O`quvqo`llanmaToshPTIIlmiyKengashi
Yig'ilishidatasdiqlangan « ____ » _____ 2013 y.
_____ -sonlibayonnoma

Kirish

Hozirgi zamon shifokori mikroblarga qarshi yuzdan ortiq dori vositalari haqida ma'lumotga ega. Shifokorning asosiy vazifasi o'z vaqtida olib borilayotgan farmakoterapiyaning samaradorligini nazorat qilish va xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Ma'lumki, shifokorlar tomonidan buyurilgan antibiotiklarning 60- 80 % asoslanmagan holda qo'llanilishi kuzatiladi. Ko'pincha respirator virusli infeksiyalarda ham antibakterial preparatlar qo'llaniladi. Asossiz qo'llanilgan antibiotiklar birinchidan –samarasiz, ikkinchidan – nojo'ya ta'sirlarning kelib chiqish ehtimolini ortishiga olib keladi. Noto'g'ri tanlab buyurilgan antibiotikning samarasi ko'rinmaydi va shifokor bu holatni mikroorganizmlar chidamliligini yuqori hisoblab, rezerv antibiotik moddalardan buyura boshlaydi. Antibakterial preparatlarni tanlab buyurishda asosan bakteriologik tekshirishlar natijalariga va ajratib olingan kultura shtammlarini antibiotiklarga ta'sirchanligini aniqlab tanlash kerak. Undan tashqari, preparat tanlashda organizmning o'ziga hos hususiyatlarini, ya'ni bemorning yoshi, eliminatsiya a'zolarining holati, allerge anamnezlar pediatriyada katta ahamiyatga ega, masalan, chaqaloqlardagi jigar glyukuroniltransferazasining nisbatan yetishmovchiligi natijasida organizmda levomitsetinning to'planishiga sabab bo'lib, keyinchalik o'tkir yurak yetishmovchiligiga olib keladi, sulfanilamidlar chaqaloqlarda bilirubin almashinuvini buzadi, tetratsiklinlar suyak to'qimasida to'planib, bolalarda skeletni o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Olib borilayotgan antibakterial davoning samaradorligida, antibakterial preparatlarning kompleks davo uchun qo'llanilayotgan boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'siri ahamiyatga ega. Antibakterial preparatlarning boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'sirini shifokorning oldindan bilishi, bemorda olib borilayotgan davoning samaradorligini oshirishga va xavfsizligini ta'minlashga olib keladi.

Maqsad va vazifalari

O`quv qo`llanmasining asosiy maqsadi, bo`lgusi shifokorlarni talabalik davridan antibakterial preparatlarni qo`llashda xavfsizligini ta`minlab, samaradorligi yuqori bo`lganlarini tanlab buyurishni o`rgatish. O`quv qo`llanmasini tuzishdan maqsad, bo`lgusi shifokorlarga talabalik davridan antibakterial dori vositalarini samaradorligini aniqlash va xavfsizligini ta`minlashni o`rgatish. Antibakterial dori vositalarini samarali farmakoterapiyasini olib borish uchun talabaning optimal antibiotik preparatni tanlab, dozalash tartibini aniqlash qo`llanma oldiga qo`yilgan vazifani bajarilishiga olib keladi. Qo`llanmadagi keyingi vazifa talabaning amaliy mashg`ulotlardan olgan ko`nikmalarini o`zlashtirib olishda antibakterial dori vositalarini qo`llashda, olib borilayotgan farmakoterapiyani nojo`ya ta'sirlarini, qarshi ko`rsatmalarini va boshqa preparatlar bilan o`zaro ta'sirini bilgan holda xavfsizligini ta`minlashdan iborat.

Yangi dori vositalarining soni borgan sari ko`payishi va ularning olib borilayotgan farmakoterapiyada asoratlari ortishi, dori vositalarining mediko-sotsial xususiyatlariga ko`ra tibbiyot hodimlari oldida, antibakterial vositalarni qo`llashda, ularning samaradorligini va xavfsizligini ta`minlashda o`zaro ta'sirini inobatga olish ahamiyatlidir. Davolashni dori vositalar bilan olib borilganda nojo`ya ta'sirlar kelib chiqadi. Statistika ma'lumotlariga ko`ra, nojo`ya ta'sirlar ko`rsatkichi shifoxonaga yotqizib davolangan bemorlarning 10-20%, rivojlangan mamlakatlarda esa 30-40% kuzatiladi. Asosiy o`rinni antimikrob preparatlar bilan boshqa guruh dori vositalari orasidagi o`zaro ta'sir egallagan. Masalan, ayrim makrolid guruh preparatlari tsitohrom R-450 ferment tizimini ingibirlash xususiyatiga ega. Natijada jigarda kechayotgan metabolik jarayon o`zgarib, qon plazmasida dori vositasining kontsentratsiyasini ortishiga olib keladi va u o`z vaqtida nojo`ya ta'sirlarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun, bir vaqtning o`zida eritromitsin bilan tsizaprid, terfenadin, astimizolga o`hshash dori vositalarini qo`llash mumkin emas. Makrolidlar ta'sirida ichishga buyurilgan digoksinning bioerishuvchanligini ortishi, uning yo`g`on ichakdagi mikroflora faoliyatini susaytirishi bilan bog`liq. Bir vaqtning o`zida bir nechta preparatlarni o`zaro ta'sirini bilmasdan turib buyurish, og`ir asoratlarga olib kelishi mumkin.

Bunday holatda buyurilgan preparatlar kasallikning klinik belgilarini differentsatsiyasini qiyinlashtirishi bilan tushintiriladi. Preparatlarning toksiko-allergik nojo`ya ta`sirlari nisbatan onson tashhislanadi, ammo parenhimatoz a`zolar tomonidan kuzatiladigan toksik reaksiyalar, umum organizmdagi o`zgarishlarni, alohida olingan a`zolar kasalliklar belgilaridan ajratish qiyin. Medikamentoz terapiyaning asoratlari va nojo`ya ta`sirlari kelib chiqishida etiotrop davo uchun qo`llaniladigan bakterial, virusli va parazitlar kasalliklarga qarshi qo`llaniladigan guruh preparatlari asosiy o`rinni egallaydi. Ilmiy adabiyotlarda ko`rsatilishicha, farmakoterapiyani asoratlarini o`rganilganda, dorilar asoratlarining 37,2% antibiotiklarga to`g`ri keladi, chunki ular boshqa dori vositalariga nisbatan ko`p qo`llaniladi. Bu holatlarga antibiotiklarni noratsional va ayrim vaqtlarda nazoratsiz qo`llanilishi olib keladi. Ko`pincha, antibiotiklar qo`lanilganda, nojo`ya ta`sirlardan allergik reaksiyalar kelib chiqib, uning og`irlik darajasi har doim ham preparatning dozasi va yuborish yo`liga bog`lik bo`lmaydi. Malumotlarga ko`ra, anafilaktik shokday og`ir asorat, nafaqat penitsillin bilan zararlangan shpripsda in`ektsiya qilganda, hattoki kasalhona havosidagi bor bo`lgan penitsillinni havo yo`llari bilan kirishi, yoki teri orasiga sinama qilinishi sabab bo`lishi mumkin

ANTIBAKTERIAL DORI VOSITALARINING TASNIFI

Antibakterial vositalarining bir necha hil tasniflari bor. Antibakterial preparatlarni klinik qo'llanilishiga ko'ra antibakterial dori vositalarni antibiotiklarga, sulfanilamidlarga, hinolon unumlariga, nitrofuranlarga, naftiridin unumlariga bo'lish qulay hisoblanadi.

Antibakterial dori vositalarni bakteriostatik va bakteritsid ta'sir etuvchilarga ham bo'lib o'rganilishi mumkin. Bakteriostatik dori vositalarga sulfanilamidlar, tetratsiklinlar, levomitsetin, eritromitsin, linkomitsin, klindamitsin, paraaminosalitsilat kislotasi kiradi. Bakteritsid dori vositalariga penitsillinlar, tsefalosporinlar, aminoglikozidlar, eritromitsin (yuqori dozalarda), rifampitsin, vankomitsinlar kiradi.

Bunday bo'linishni antibiotiklarni kombinirlab qo'llayotganda inobatga olish kerak, chunki, bakteriostatik va bakteritsid preparatlarni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq emas. Bakteriostatik xususiyatga ega bo'lgan preparatlar organizmni himoya qilish xususiyatlari pasayganda (septik holatlarda) o'sishi to'xtatilgan bakteriyalarni (agranulotsitozda, immunodepressiv terapiyada, infeksiyon endokarditda) keragicha parchalay olmaydi. Bunday holatlarda mikroblarni preparatga nisbatan ta'sirchanligini bakteriologik tahlili bo'lsa ham, bakteritsid xususiyatga egalari tanlanadi.

Antibakterial preparatlarning ta'sir mexanizmiga ko'ra tasnifi

I. Hujayra devorining biosintezini spetsifik ingibitorlari (penitsillinlar, tsefalosporinlar va tsefamitsinlar, vankomitsin, ristomitsin, tsikloserin, batsitratsin, tienam va boshqalar).

II. Hujayra membranasi faoliyatini va molekulyar tuzilishini buzuvchi preparatlar (polimiksinlar, polienlar).

III. Oqsil sintezini ribosomalar darajasida buzuvchi preparatlar (makrolidlar, linkomitsinlar, aminoglikozidlar, tetratsiklinlar, levomitsetin, fuzidin).

IV. RNK – polimeraza darajasida va folat kislotasini metabolizmiga RNK sintezini ingibirlanishi bilan ta'sir qiluvchilar (rifampitsinlar, sulfanilamidlar, trimetoprim, pirimetamin, xloroxin).

V.DNK-matritsa darajasida RNK sintezi ingibitorlari (aktinomitsinlar, aureol kislotasi guruhi antibiotiklari, 5-flyuorotsitozin).

VI. DNK-matritsa darajasida RNK sintezi ingibitorlari (metronidazol, nitrofuranlar, nalidiks kislotasi, novobiotsin).

Antibakterial dori vositalar tasnifi

ANTIBIOTIKLAR

Gurux	Preparatlar
Penitsillinlar Tabiiy penitsillinlar:	benzilpenitsillin (kaliyli, natriyli, novokainlituzlari)bitsillin-1,3,5 fenoksimetilpenitsillin
Penitsillinazagachidamliyarimsintetikpenitsillinlar (izoksazol-penitsillinlar):	kloksatsillin oksatsillin flukloksatsillin
Penitsillinazata'siridaparchala-nuvchikengspektr, ta'sirigaegayarimsintetikpreparatlar	ampitsillin amoksitsillin va boshqalar
Penitsillinaza ta'sirida parchala-nuvchi, keng spektr ta'sirga ega yarim sintetik, ko'k yiring tayoqchasiga qarshi faol ta'sir etuvchi preparatlar	karboksipenitsillinlar va ureidopenitsillinlar: azlotsillin, mezlotsillin, piperatsillin va boshqalar.
Tsefalosporinlar I avlod tsefalosporinlar: kislotaga chidamli	tsefaleksin, tsefradin.
I avlod tsefalosporinlar: kislotaga chidamsiz	tsefalotin,tsefazolin, tsefaloridin
IIavlodtsefalosporinlar: kislotagachidamli	tsefaklor, tsefuroksimoksetil
IIavlodtsefalosporinlar: kislotagachidamsiz	tsefuroksim, tsefamandol, tsefotetan.
IIIavlodtsefalosporinlar: kislotagachidamli	tsefuroksim, tseflodoksim, tsefiksim.
IIIavlodtsefalosporinlar: kislotagachidamsiz	tsefuroksim, tseftriakson, tseftazidimvaboshqalar.
IV avlod tsefalosporinlari:	tsefpirom, tsefepim, tsefklidin
Karbapenemlar I avlod II avlod	imipenem, tienam, primaksin meropenem (meronem)

Monobaktamlar	Aztreonam
Makrolidlar I avlod II avlod III avlod	eritromitsin, oleandomitsin spiromitsin, roksitromitsin, djozamitsin, klaritromitsin, midekamitsin, diritromitsin azitromitsin (sumamed)
Aminoglikozidlar I avlod II avlod III avlod IV avlod	streptomitsin, neomitsin, kanamitsin, monomitsin, gentamitsin (garamitsin) tobramitsin, sizomitsin, amikatsin, netilmitsin, izepamitsin
Tetratsiklinlar Tabiiy tetratsiklinlar yarim sintetik tetratsiklinlar	oksitetratsiklin, tetratsiklin metatsiklin, doksitsiklin, minotsiklin
Levomitsetinlar	levomitsetin, levomitsetin-stearat, levomitsetin-palmitat, levomitsetin- suktsinat
Polimiksinlar	polimiksin M, polimiksin V, polimiksin E
Linkozamidlar	linkomitsin, klindomitsin (dalatsin S)
Glikopeptidlar	vankomitsin, teykoplanin

TURLI KIMIEVIY TUZILISHGA EGA BO`LGAN ANTIBAKTERIAL DORI VOSITALARI

SULFANILAMID PREPARATLARI

Sistemali infeksiyalarda qo`llaniladigan sulfanilamid preparatlari:	
Gurux	Preparatlar
Qisqa muddat ta'sir etuvchi preparatlar	streptotsid, sulfatsil natriy (albutsid), etazol, norsulfazol
O`rtacha muddat ta'sir etuvchi preparatlar	urosulfan, sulfadimezin, sulfazoksazol.

Uzoq muddat ta'sir etuvchi preparatlar	sulfazin, sulfametosazol, sulfamosal sulfapiridazin
O'ta uzoq muddat ta'sir etuvchi preparatlar	Sulfamonometoksin, sulfadimetoksin, sulfalen (kelfizin, meglyumin), sulfadoksin
Ta'sir muddati turlicha bo'lgan, trimetaprim bilan kombinirlangan preparatlar	poteseptil (sulfadimezin + trimetoprim), groseptol (sulfamerazin + trimetoprim), ko-trimoksazol, baktrim, biseptol (tarkibid sulfametoksazol + trimetoprim), sulfaton (sulfamonometoksin + trimetoprim), lidaprim (sulfametrol + trimetoprim)
Me'da-ichak infeksiyalarida qo'llaniladigan sulfanilamid preparatlari	sulgin, ftalazol, ftazin, disulformin
5-aminosalitsilat kislota bilan kombinirlangan preparatlar	salazosulfapiridin, salazopiridazin, salazodimetoksin

XINOLONLAR

Gurux	Preparatlar
I avlod xinolonlar:	hinozol, enteroseptol, hlorhinoldon, intestopan, hiniofon, nitroksolin (5-NOK), kombinirlangan preparatlar (meksaza, meksaform).
II avlod xinolonlar:	nalidiks kislota (nevigramon, negram), oksolin kislota, pipemidin kislota (palin, pipram), tsinoksatsin (tsinobak).
III avlod xinolonlar – Ftorxinolonlar monoftorxinolonlar:	norfloksatsin (floksatsin, barazan), enoksatsin (giramid), pefloksatsin (peflatsin, abaktal), ofloksatsin (tarivid), tsiprofloksatsin (tsiprobay), rufloksatsin.
diftorxinolonlar:	lomefloksatsin (maksakvin), sparfloksatsin (zagam).
triftorxinolonlar:	tosufloksatsin, fleroksatsin (hinodis).

NITROFURANLAR

Gurux	Preparatlar
Nitrofuranlar	furatsillin (nitrofural), furazolidon (nifurozid), furadonin (nitrofurantoin, makrodantin), furagin (furazidin, solafur), furazolin, nifuratel, nifuroksazid (ertsefuril)

NITROIMIDAZOLLAR

Gurux	Preparatlar
Nitroimidazollar	metronidazol (trihopol, flagil, metrogil, klion), tinidazol (fasijin), ornidazol (tiberal).

SILGA QARSHI DORI VOSITALARI

Gurux	Preparatlar
Asosiy izonikotin kislota gidrozidlari	GINK, izoniazid, tubazid, ftivazid, salyuzid, metazid, rifampitsin
Rezerv	etionamid, protionamid, etambutol, streptomitsin, tsikloserin, pirazinamid, kanamitsin, florimitsin, tioatsetazon, PASK

ZAMBURUG`GA QARSHI PREPARATLAR TASNIFI

Gurux	Preparatlar
Polienlar	Nistatin, Levorin, Natamitsin, Amfoteritsin V, Amfoteritsin V liposomal
A Z O L L A R	
Umumiy qo`llaniluvchi	Ketokonazol, Flukonazol, Mikonazol, Itrakonazol
Maxalliy qo`llaniluvchi	Bifonazol, Klotrimazol, Oksikonazol
A L L I L A M I N L A R	
Umumiy qo`llaniluvchi	Terbinafin
Maxalliy qo`llaniluvchi	Naftifin
Turli kimyoviy gurux preparatlari	Grizeofulvin, Flutsitozin, Hlornitrofenol, Kaliy yodid

ANTIBAKTERIAL PREPARATLARNING TA'SIR MEHANIZMI

Antibakterial preparatlar etiotrop dori vositalarga kirib, mikroorganizmlarning hayot faoliyatiga tanlab ta'sir etadi. Bu ularning asosiy xususiyatlaridan bo`lib, inson

infektsion kasalliklarining chaqiruvchisiga tanlab ta'sir etadi. Ular yordamida infektsion kasallikni chaqiruvchisining kamayishi yoki o'sishining sekinlashuviga erishilgan ta'sir organizmning himoya xususiyatlarini oshiradi. Antibakterial preparatlarning mikroorganizmlarning o'sishiga ta'siri quyidagi uchta talabga javob berilsagina amalga oshirish mumkin:

1) bakteriyalarning hayot faoliyati uchun kerakli biologik tizim ma'lum bir nuqtalar orqali preparatlarning past kontsentratsiyasiga javob berishi;

2) preparat bakterial xujayra ichiga kirishi va o'z nuqtasiga ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lishi kerak;

3) preparatning faolligi bakteriya biologik faol tizimi bilan o'zaro ta'sirga kirmagan va inaktivlanmasligi kerak.


Antibiotiklarga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bakteritsid va bakteriostatik preparatlarga bo'linadi.

Antibakterial preparatlarning bakteriyalarga ta'sir qilish nuqtalari turlicha (rasm.1). Ularning ko'p qismi xujayra membranasida va hujayra ichida joylashgan. Bu nuqtalarga antibiotik preparatlar ta'sir qilishi uchun, avvalo, xujayralarning tashqi qobig'iga joylashgan tsitoplazmatik membranalarga etib olib kirishi kerak. Preparatning yo'lida asosiy bar'ەر bo'lib xujayra devori turadi. Antimikrob dori vositalari tuzilishiga ko'ra bakteriyalarning ta'sirchanligini hisobga olib, grammanfiy va grammusbat ta'sir etuvchilarga bo'linadi. Antimikrob preparatlarining asosiy nishon a'zosi bo'lib grammusbat bakteriyalar devorida ko'p miqdorda joylashgan mukopeptidlar hisoblanadi. Grammanfiy bakteriyalar xujayra devorida juda ko'p miqdorda lipidlar bo'lib, uning o'tkazuvchanligi sust va ko'pgina antibakterial vositalar uchun ishonchli bar'ەر hisoblanadi. Bunday ko'rinishdagi ta'sir bar'erlarni zabt etaoladigan yangi preparatlar izlanishini yo'lga qo'yishga olib keladi. Ihtiro qilingan yarimsintetik penitsillinlar va tsefalosporinlar grammanfiy bakteriyalarning lipopolisaharid qavati o'tkazuvchanligi yuqori bo'lganligi sababli boshqa ko'pgina preparatlarga nisbatan yuqori faollikka ega.


Antibakterial preparatlarning ta'sir qilish nuqtalari bo'lib tsitoplazmatik membranani tarkibiy qismiga kirib, hujayra ichi suyuqligini doimiylikni quvvatlab turuvchi, turli oqsil biosintezi jarayonlarini o'tkazishda ishtirok etuvchi DNK dan tortib RNK informatsiyalar fermentlari ishtirok etishi mumkin.

Rasm 1: Bakterial xujayra va unga antibakterial preparatlarning ta'siri.

Bakterial xudayra



Xugayra membranasi o'tkazuvchanligini buzadi	Xugayra membranasi oqsil sintezini buzadi	Microbning hujayra ichi oqsil sintezini buzadi	RNK sintezini susaytiradi
Polimiksinlar Aminoglikozidlar (yoqori kontsentratsiyada)	Penitsillinlar Cefalosporinlar Karbopenemlar Monobaktamlar Glikopeptidlar	Tetracyklinlar Linkomycin Makrolidlar Azalidlar Aminoglikozidlar	Rifampicin



Рasm 2. Sulfanilamidlar ta'sir mexanizmi

Antimikrobpreparatlarningmikrobxujayrasidaginuqtasigata'siriningmustahkam yoki mustahkammasligi, preparatningqaydarajada faolligini aniqlaydi.

Antimikrob dorivositalar yuqoridan labta'sir qilish hususiyatiga ega bo'lishi, ya'ni, mikrobxujayralariga qarshi faol va bemor organizmi uchun xafsiz bo'lishi kerak.

Antimikrobpreparatlarning bundan labta'sir qilish mikrobxujayralarining biokimyotizi mifalligining makroorganizm xujayralaridagi biokimyotizidan farq qilsa, inaro'yobgachiqishim mumkin.

Tanlabta'sir qilish chegaralangan bo'lib inson organizmi va bakteriyalar xujayra biokimyoviy tuzilishidagi fosfolipidlarning sitoplazmatik membranadagi holatlar bilan bog'liq.

ANTIBAKTERIAL DORI VOSITALARINING NOJO`YA TA`SIRLARI

Penitsillinlarning nojo`ya effektlari:

Hamma penitsillinlar to'qnashuv allergiyasiga uchrash hususiyatiga ega. Penitsillinlarning anafilaktik shok allergopatologiyasi klinikasidan tashqari quyidagilar kuzatiladi :

- miokardit
- dermatologik variantlar (eshak emi, eritematoz yoki qizamiqsimon toshmalar).
- Ular qon plazmasida yuqori kontsentratsiyalarda miyaga va uning suyuqligi likvorga o'tishi kuchayadi, bu miyadagi (MNSdagi tormozlantiruvchi mediatr) gamma-aminomoy kislotasining antagonistik ta'siri natijasida neyrotoksik effektlarni keltirib chiqaradi:

- gallyutsinatsiyalar, alahsirash
- arterial bosimni nazoratining izdan chiqishi
- talvasalar

- Ampitsillin psevdomembranoz kolit va diareya chaqirishi mumkin.

• Bitsillinlar spetsifik nojo`ya ta'sirlar chaqirishi mumkin: - maxalliy infiltratlar

- One sindrom (arteriyaga behosdan tushib qolsa periferiyada shish va gangrena) yoki Nikolau sindrom (venaga tushganda miya va o'pka tomirlarida emboliya)ga o'hshash qon tomir yetishmovchilik asoratlari kuzatiladi.

•Karboksipenitsillinlar va ureidopenitsillinlar – tor ta'sir doirasiga ega preparatlar. Bu preparatlar dozasiga juda ham rioya qilish talab qilinadi. Ular quyidagi nojo'ya ta'sirlarni chaqiradi:

- allergik reaksiyalar
 - neyrotoksikoz simptomlari
 - o'tkir interstitsial nefrit
 - ichak disbiozi
 - trombositopeniyalar, neytropeniyalar, leykopeniyalar, eozinofiliya
 - gipokaliemiya va gipokaligistiya, gipernatriemiya.
- Klavulon kislota tutgan kombinirlangan preparatlar o'tkir jigar etishmovchiliklariga olib keladi.

Penitsillinlar qo'llanishiga qarshi ko'rsatma:

- Penitsillinlar va tsefalosporinlarga allergik reaksiyalar.
 - Bronhial astma, eshak emi va boshqa kasalliklari bo'lgan bemorlarga ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi.
 - Yurak ritmlari buzilgan va giperkalemiyasi bo'lgan bemorlarga benzilpenitsillinning kaliyli tuzini buyurish mumkin emas.
 - Epilepsiyasi bo'lgan bemorlarga benzilpenitsillinning natriyli tuzi endolyumbal yuborilmaydi.
 - Koagulopatiyalarga uchragan bemorlarga prokain benzilpenitsillin buyurilmaydi.
 - Infektsion mononukleozda, limfoleykozda amoksitsillin qo'llash mumkin emas
- Og'ir jigar hastaliklarida va laktatsiya davrida ampitsillin buyurish mumkin emas
- Og'ir jigar, buyrak hastaliklarida, homiladorlikda, laktatsiya davrida va yosh bolalarga bakampitsillin buyurish mumkin emas.
- Jigar faoliyati buzilganda, qon oqishga moyillik bo'lganda, yarali kolitda, enteritda, infektsion mononukleozda karbenitsillin buyurish mumkin emas.

Tsefalosporinlarning nojo`ya ta`sirlari:

- Allergik reaksiyalar: terida toshmalar, haroratning ko`tarilishi (lihoradka), eozinofiliya, hattoki anafilaktik shok.

- Nefrotoksiklik: asosan, buyrak kanalchalari orqali sekretsionalanib ekskretsiyaga uchraydigan 1 avlod tsefalosporinlar qo`llanilganda kuzatiladi. Buyrakning proksimal kanalchalari membranalari jarohatlanishi, monooksigenaz tizim ta`siri natijasida hosil bo`lgan epoksidlarning buyrak kanalchalari epiteliysiga ta`siri hisobiga kelib chiqadi.

- Neyrotoksiklik (nistagm, hulkining buzilishi, talvasalar, gallyutsinatsiyalar)– gamma-aminamoy kislotasi bilan antagonizm xisobiga.

- Gematotoksiklik (trombotsitopeniya, leykopeniya, neytropeniya, koagulopatiyalar). II va III avlod tsefalosporinlarivitamin Knifaol shakligao`tkazuvchi epoksid reduktazanifaoliyatini susaytirish xisobiga gemorragiyalar keltirib chiqaradi.

- Gepatotoksiklik (giperfermentemiya: ALT, AST, laktatdehidrogenaza, ishqoriy fosfataza va boshqalar).

- Superinfektsiya.

- Muskul orasiga yuborilganda shu joyda kuchli og`ris bo`ladi (shuning uchun preparatlarni novokain eritmasida eritib yuborish maqul).

- Vena ichiga yuborilganda flebitlar kuzatiladi (shuning uchun preparatlarni asta-sekin yoki tomchilab yuborish maqul)

- Ichishga buyurilganda – dispeptik o`zgarishlar, disbioz.

- Antobussimon ta`sir (atsetaldegid dehidrogenaza faolligi susayadi).

Tsefalosporinlar qo`llanilishiga qarshi ko`rsatmalar:

- Penitsillin va tsefalosporinlarga allergik reaksiyalar.

- Tsefazolin, tsefalekssin, tsefradin, tsefuroksim, tsefotaksim, tseftriakson, tseftazidim, tsefiksimlar xomiladolarga va emizikli ayollarga mumkin emas.

- Tsefamandol, tsefiksim 6 oylikgacha bo`lgan bolalarga buyurish mumkin emas

- Tseftriakson 2-yoshdan 5yoshgacha bo`lgan bolalarga buyurilmaydi.
- Tsefipimni 5 yoshdan katta va o`smirlarga buyurish mumkin emas.
- Mikroblarga qarshi dori vositalari chaqirgan MIT kasalliklari nospetsefik yarali kolit, enterokolitlarda tsefuroksim, tsefaklor, tsefotaksim, tseftriaksonlar buyurish mumkin emas.
- Tsefalotin va tsefaloridindan tashqari 1 avlod preparatlari kam toksiklikga ega. Ular ko`proq ambulator sharoitida qo`llaniladi. II, III, IV avlod preparatlari ko`prok toksiklikga ega bo`lganligi sababli ularni klinika sharoitlarida qo`llaniladi.

Karbapenemlarning nojo`ya ta'sirlari:

(toksikligi kam bo`lgan preparatlar)

- Allergik reaksiyalar: toshmalar, eozinofiliya
- Superinfektsiya (kandidoz)
- Nefrotoksiklik juda kam hollarda (ko`proq imipenem qo`llanilganda)
- Buyrak faoliyati buzilgan va MNS kasalliklari bo`lgan bemorlarda vena ichiga yuborilgan tienam yoki primaksin holsizlik, titrash, mushaklar tonusining kuchayishi, paresteziyalar, entsefalopatiya va talvasalarga sabab bo`ladi.

Karbapenemlar qo`llanilishiga qarshi ko`rsatma:

- 3 oylikkacha bo`lgan bolalarga buyurilmaydi.
- Shu guruh preparatlariga allergik reaksiyalar
- Buyrakyatishmovchiligi

Monobaktamlarning nojo`ya ta'sirlari:

(aztreonam kam toksik preparat)

- Yangi tug`ilgan chaqaloqlarda asorat juda kam uchraydi: allergik reaksiyalar (toshmalar) eozinofiliya
- Qon quyilishining buzilishi (protrombin indeksining pasayishi).
- Qonda jigar fermentlarining faolligini ortishi (ALT, AST, ishqoriy fosfataza va boshqalar)
- Vena ichiga yuborilganda flebitlar
- Ko`ngil aynash, diareya

- Disbioz (III avlod tsefalosporinlari qo'llanilgandan ko'ra ancha kamroq);
- Kamdan-kam hollarda psevdomembranoz kolit

Monobaktamlar qo'llanilishiga qarshi ko'rsatma:

- Shu guruh preparatlariga allergik reaksiyalar

Makrolidlarning nojo'ya ta'sirlari:

(Makrolidlar kam toksik preparatlar)

- Dispeptik o'zgarishlar (ko'ngil aynash, qusish, diareya)
- Stomatitlar, gingivitlar.
- Xolestaz
- Vena ichiga yuborilganda flebitlar, aritmiyalar, Q – T intervalining uzayishi, vaqtinchalik eshitishni pasayishi.

Makrolidlar qo'llanilishiga qarshi ko'rsatma:

- Makrolid guruxi antibiotiklariga sezgirlikning yuqori bo'lishi.
- Jigar faoliyatining chuqur buzilishi.
 - Yurak ritmi buzilgan va eshitish qobiliyati susaygan bemorlarga djozamitsin buyurish mumkin emas.
- Xomilador va emizikli ayollarga azitromitsin, klaritromitsin, roksitromitsin buyurish mumkin emas.
- Emizikli ayollarga eritromitsin buyurish mumkin emas.

Aminoglikozidlarning nojo'ya ta'sirlari:

(streptomitsin, neomitsin, kanamitsin, monomitsin, gentamitsin = garamitsin, tobramitsin, sizomitsin, amikatsin, netilmitsin, izepamitsin):

- Ototoksiklik: ular tashqi va ichki quloq kortiev organ tolachalarining xujayralarida to'planib, degenerativ o'zgarishga olib keladi.
- Vestibulyar buzilishlar (streptomitsin, gentamitsin)
- Nefrotoksiklik: ular buyrakning proksimal kanalchalari epitelial xujayralarida to'planib, lizosomalarni parchalaydi, ko'pgina fermentlarning (natriy- va kaliy- ATFa, prostaglandinsintetaza, nafas fermentlari) faoliyatini buzadi.

- Nafas paralichi nerv-mushak o`tkazuvchanlik bloklanishi natijasida diafragma va nafas mushaklarining susayishi hisobiga kelib chiqadi.
- Ular MIT shilliqqavatlaridagi transport mexanizmlarini susaytirib, ichaklardagi so`rilish jarayonini buzilishiga olib keladi.
- Allergik reaksiyalar: terida toshmalar, qichish, shish.
 - Polinevritlar
- Vena ichiga yuborilganda - flebitlar.

Aminoglikozidlarning qo`llanilishiga qarshi ko`rsatma:

- Aminoglikozidlarga sezgirlik yuqori bo`lganda
- Eshituv nervining nevitida
- Og`ir buyrak etishmovchiligi, uremiya
- Xomilador ayollarga amikatsin, neomitsin, sizomitsin, tobromitsin buyurish mumkin emas
- Jigar kasalliklarida va ichak o`tkazuvchanligi buzilganda kanamitsin buyurish mumkin emas
- Miasteniya, parkinsonizm, botulizmdaneomitsin, sizomitsinva tobromitsin buyurilmaydi

Tetratsiklinlarning nojo`ya ta`sirlari

(oksitetratsiklin, tetratsiklin, metatsiklin, doksitsiklin, minotsiklin):

- Qon yaratuvchi a`zolarining faoliyatini susaytirishi (trombotsitopeniya, leykopeniya, anemiya)
- Ichak epitelial hujayralarining bo`linishining buzilishi (dispepsiyalar, eroziyalar, yaralar, stomatit, glossit, malabsorbtsiya sindromi) va terida (dermatit, fotosensibilizatsiya)
 - Gepatotoksiklik (albuminlar, karboksiprotrombin, prokonvertin va boshqa oqsillarning sintezi susayadi, bilirubin va azotli shlaklar metabolizmi tormozlanadi)
- Distrofiya va miasteniya fonida yangi tug`ilgan chaqaloqlar, ayniqsa chala tug`ilganlarda, homiladorlarda, qariyalarda uzoq vaqt garmonoterapiya olgan bemorlarda

nerv-mushak o'tkazuvchanligining buzilishi kuzatiladi.

- Doksitsiklinni vena ichiga tez yuborilsa (qondagi kaltsiyni bog'lanishi hisobiga) yurak yetishmovchiligi va kollapsga olib keladi.
- Ko'krak yoshidagi bolalarda miya ichki bosimining ko'tarilishi, meningial holatlarni chaqirishi, og'ir bosh og'riq, qusish va boshqalarga olib keladi.
- Ayrim hollarda – o'limgacha olib kelishi mumkin.
- Disbioz, kandidoz, psevdomembranoz kolit.
- Vestibulyar ototoksiklikni minotsiklin chaqiradi (ko'ngil aynash, qusish, bosh aylanishi, ataksiya).
- Teratogenlik.

Tetratsiklinlar qo'llanishiga qarshi ko'rsatma:

- Tetratsiklinlarga sezgirlikni ortishi
- 8 yoshgacha bo'lgan bemorlarga buyurib bo'lmaydi
- Buyrak orqali chiqarilishi kerak bo'lgan preparatlar uning ayiruv faoliyati buzilganda buyurilmaydi
- Bolalarga jigar kasalliklarida, leykopeniyada buyurish mumkin emas
- Xomilador va emizikli ayollarga buyurilmaydi
- Porfiriya doksitsiklin qo'llash mumkin emas
- Kandsiz diabetda metatsiklin qo'llash mumkin emas

Tetratsiklinlar – toksik preparatlar, ularda tanlab ta'sir qilish kuzatilmay, nafaqat mikroob xujayralarining bo'linishini buzishga, balki makroorganizm xujayralarining bo'linishiga ham ta'sir qiladi.

Levomitsetinlarning nojo'ya ta'sirlari

(levomitsetin, levomitsetin-stearat, levomitsetin-palmitat, levomitsetin-suktsinat)

- Mielotoksik ta'sir (anemiya, neytropeniya, leykopeniya, trombositopeniya), letallikka olib kelishi mumkin bo'lgan qaytmas applastik anemiya.
- Dori ta'siri natijasida o'tkir gemoliz – bolalarda genetik glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza fermenti etishmovchiligida kelib chiqadi.

•Nogemolitik anemiya – bolalarda genetik uridindifosfoglyukuron transferaza fermentining etishmovchiligidan kelib chiqadi.

- Gipotrofiya, miodistrofiya.
- Chala tug`ilgan chaqaloqlarda va ular hayotining birichi 2-3 oylarida levomitsetinning qondagi kontsentratsiyasi 50 mkg/ml ortsa «kulrang kollaps» sindromi kelib chiqadi.

- Allergik reaksiyalar

- Periferik nevrillar, qizish, uvishish, pulsatsiya ko`rinishida.

- Mukovistsidoz bilan kasallangan bemor bolalarda ko`ruv nervi nevriti kuzatilib, bunda ko`rish o`tkirligi va rang ajratish (qizil va yashil)qobiliyati pasayadi, predmetlarning «yoyilishi» paydo bo`ladi va ayrim hollarda ko`rlik keltirib chiqaradi.

- Dispepsik o`zgarishlar

- Yarish-Gerksgeymer sindromi (bir vaqtning o`zida juda ko'p miqdorda salmonella va boshqa Gr – bakteriyalarning o`limi natijasida kelib chiqqan endotoksik shok)

- Kolitik sindrom

- Yaralarning tuzalishini sekinlashuvi

- Allopetsiya

Levomitsetinlar qo`llanilishiga qarshi ko`rsatma:

- Levomitsetinga nisbatan sezgirlikning ortishi

- Anemiyalar

- Jigar va buyrak kasalliklari

- Psoriaz

- Ekzema

- Terining zamburugli kasalliklari

Levomitsetin – toksik preparat bo`lib, terapevtik ta'sir kengligi tor xisoblanadi.

Polimiksinlarning nojo`ya ta'sirlari

(polimiksin M, polimiksin V, polimiksin E):

- Neyrotoksiklik:

- nerv-mushak o`tkazuvchanligining buzilishi (mushaklarning bo`shashishi, nafas olishning buzilishi);
- periferik neyropatiyalar (og`iz atrofi, ko`z va til qichishi);
- ko`rish va eshitishning buzilishi;
- uyquchanlik va hayajonlanish;

- Nefrotoksiklik:

- siydikda oqsil, tsilindrlar, eritrotsitlar paydo bo`lishi, oliguriya va qonda siydikchil ko`rsatkichining ko`tarilishi hamda electrolit balansining buzilishi

- Ichishga buyurilganda – epigastral sohada og`riq, ko`ngil aynash, anoreksiya.

- In`ektsiya qilingan joyda og`riq, flebitlar.

- Allergik reaksiyalar.

- Kamdan-kam hollarda- trombositopeniya, eozinofiliya, ichak disbiozi.

Polimiksinlarning qo`llanilishiga qarshi ko`rsatma:

- Polimiksinlarga sezgirlikning yuqori bo`lishi
- Jigar va buyrak faoliyatining chuqur buzilishlari

Linkozamidlarning nojo`ya ta'sirlari:

- Qorinda og`ris, diareya, ko`ngil aynash, qusish, psevdomembranoz kolit

- Toshmalar, terining qizarishi, qichish

- Neytropeniya (haroratning ko'tarilishi – isitma va tomoqda og`riq), trombositopeniya (qon quyilishi yoki qon ketishlar bilan ko`rinadi)

Linkozamidlar qo`llanilishiga qarshi ko`rsatma:

- Anamnezida me`da-ichak kasalliklari bo`lsa nospetsifik yarali kolit, antibiotiklar qo`llanilishi bilan bog`liq bo`lgan enterit yoki kolit)
- Linkozamidlarga sezgirlikning kuchayishi
- Homiladorlik

- Laktatsiya

Jigar va buyrak etishmovchiligining terminal holatlarida dozani kamaytirish kerak.

Glikopeptidlarning nojo`ya ta`sirlari:

- Nefrotoksik ta`sir (qonda kreatinin va mochevinani oshishi, anuriya)
- MNS (bosh aylanishi, bosh og`rishi)
- Ototoksik ta`sir (eshitish qobiliyatining pasayishi, vestibulyar buzilishlar)
- Maxalliy o`zgarishlar (yuborilgan joyda og`riq, achishi, flebitlar)
- Allergik reaksiyalar (toshmalar, eshak emi, lihoradka, anafilaktik shok)
- Gematotoksik ta`sir (qaytar leykopeniya, trombositopeniya)
- MIT : ko`ngil aynash, qayt qilish, diareya
- Jigarda: transaminazalarning, ishqoriy fosfatazaning faolligining tranzitor oshishi

Glikopeptidlarning qo`llanilishiga qarshi ko`rsatma:

- Glikopeptidlarga allergik reaksiyalar
- Xomiladorlik (1 trimestr)
- Laktatsiya davri

Sulfanilamidlarning nojo`ya ta`sirlari:

- Dispeptik o`zgarishlar (ko`ngil aynash, qusish, diareya).
- Sulfanilamidlarning qisqa ta'sir etuvchi preparatini qo`llaganda nefrotoksik ta`sir (urosulfandan tashqari)
- Metgemoglobinemiya, ko`proq yangi tug`ilgan chaqaloqlarda va bir yoshgacha bo`lgan bolalarda
- Giperbilirubinemiya, ko`pincha o`ta uzoq va uzoq ta`sir etuvchi sulfanilamidlar qo`llaganda kelib chiqadi.
- «qizil yugirik sindromi» genetik atsetiltransferaza fermenti defitsiti bo`lgan odamlarda kuzatiladi.
- Allergik reaksiyalar: eshak emi, toshmalar, ekzantema, qichish, teri fotosensibilizatsiyasi, kamdan-kam - Stivens – Djonson, Layella va

Lefler sindromi.

- Nevritlar (sezuvchanlik buzilmasdan mushaklar bo'shashuvi).

- Folat kislota etishmovchilik simptomlari:

a) neytropeniya, leykopeniya, trombositopeniya, megaloblast yoki aplastik anemiya.

b) me'da-ichak tizimi faoliyatining buzilishi (ko'ngil aynash, qusish,diareya, anoreksiya,stomatit).

v) gipotrofiya.

g) spermatogenezning buzilishi.

Sulfanilamidlarning qo'llanilishiga qarshi ko'rsatma:

- Ona qornida xomilaning rivojlanishiga xavfli ta'siri bo'lganligi munosabati bilan Baktrimni homilador ayollarga buyurish mumkin emas
- Emizikli ayollar iste'mol qilganida, bolalarida metgemoglobinemiyani keltirib chiqarishi mumkin
- Giperbilirubinemiya
- Eritrotsitlarda glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza etishmaganda
- Bolalarda, sulfanilamidlardan qaysi birinidir qo'llaganda toshmalar toshishi
- Siydik tosh kasalligida
- Qon yaratuvchi (RES) a'zolar kasalliklarida
- Dekompensasiyalangan yurak etishmovchiligida

Xinolonlarning nojo'ya ta'sirlari:

I avlod xinolonlar

(xinozol, enteroseptol, hlorxinoldon, intestopan, xiniofon,

Nitroksolin=, 5-NOK, kombinirlangan preparatlar: meksaza= meksaform)

- Dispepsik o'zgarishlar
- Allergik reaksiyalar
- Yodizmni kelib chiqishi (enteroseptol va xiniofon): tumov, balg'am ajralishi

bilan yo`tal, so`lak oqishi, bug`imlarda og`riq, terida toshmalar, diareya, og`izdametall ta`mini sezish.

- Bromizmni kelib chiqishi (intestopan): so`lak va ko`z yoshlarining oqishi, oshqozon soki sekretsiasini kamayishi, diqqat va eslash qobiliyatining susayishi, terining qitiqlanishi.
- Periferik nevrillar, ko`ruv nervining nevriti (enteroseptol) ko`rlikkacha olib kelishi mumkin.
- Ko`zning ichki bosimining ortishi, yutishning qiyinlashuvi, taxikardiya, siydik pufagining gipotoniya va qabziyatlar (meksaform).

II avlod xinolonlar

(nalidiks kislota = nevigramon = negram, oksolin kislota, pipemidin kislota = palin = pipram, tsinoksatsin = tsinobak):

- Allergik reaksiyalar
- Dispepsik o`zgarishlar
- Fotodermatoz
- Bosh og`rishi, bosh aylanish
- Tremor, yorug`likdan qo`rqish va uyqusizlik
- Amalda hamma II avlod preparatlari gepatotoksiklikka ega
- Ko`krak yoshidagi bolalarda miya ichki bosimining ko`tarilishi

III avlod xinolonlar:

Ftorxinololar (norfloksatsin = floksatsin = barazan, enoksatsin = giramid, pefloksatsin = peflatsin = abaktal, ofloksatsin = tarivid, tsiprofloksatsin = tsiprobay, rufloksatsin, lomefloksatsin = maksakvin, sparfloksatsin = zagam, tosufloksatsin, fleroksatsin = hinodis):

- Dispepsik o`zgarishlar: ko`ngil aynash, qusish, anoreksiya, diareya
- Allergik reaksiyalar: toshmalar, terining qichishi
- Fotosensibilizatsiya
- Bosh aylanish, bosh og`rishi, uyqusizlik, kayfiyatning o`zgarishi, dezorientatsiya, yorug`likdan qo`rqish, yomon tushlar ko`rish,

gallyutsinatsiyalar, qo'zg'aluvchanlikka moyil bo'lgan bemorlarda - talvasalar (epilepsiya, bosh miya jarohati)

- Kamdan-kam hollarda- anemiya, trombotsitopeniya, leykopeniya, eozinofiliya
- Tranzitor artralgiyalar
- Juda kam hollarda: tendinit, tendovaginit (paylarning cho'zilishi va uzulishi, ayniqsa glyukokortikoidlar bilan birga qo'llaganda), mialgiyalar, disbioz, psevdomembranoz kolit, jigar yoki buyrak faoliyatining buzilishi, epifora (ko'zlarning yoshlanishi.)

Xinolonlar qo'llanilishiga qarshi ko'rsatma:

I avlod preparatlari:

- I avlod xinolon unumlariga sezgirlik yuqori bo'lsa
- Anamnezida allergik reaksiyalar
- Jigar va buyrakning og'ir kasalliklari
- Ko'ruv nervining kasalliklari
- Periferik nerv tizimining zararlanishi

II avlod preparatlari:

- Jigar faoliyatining buzilishi
- Nafas markaz faoliyatining susayishi
- Buyrak faoliyatining og'ir buzilishlari
- Xomiladorlik
- 2 yoshgacha bo'lgan bolalarga va emizikli ayollarga buyurish mumkin emas

III avlod preparatlari:

- I va II xinolon va ftorxinolon avlod preparatlariga sezgirlikning ortishi
- Bosh miya qon tomirlarining aterosklerozi
- Epilepsiya
- Jigar va buyrakning og'ir kasalliklari
- Glyukoza-6-fosfat fermentining defitsiti
- Homiladorlik
- Laktatsiya
- 16-18 yoshgacha bo'lganlarga

Nitrofuranlarning nojo'ya ta'siri:

*(furatsillin=nitrofural, furazolidon = nifurozid,
furadonin = nitrofurantoin = makrodantin, furagin = furazidin = solafur, furazolin,
nifuroksazid = zrtsefuril, nifuratel):*

- Dispepsik o'zgarishlar
- Allergik reaksiyalar (terida toshmalar, eozinofiliya, o'pkada allergik infiltratlar, yo'tal, isitma, kamdan-kam qaytar o'pka fibrozi, artralgiya, mialgiya, qizil yugiriksion (volchanka) sindrom, anafilaktik shok)
- Arterial gipertenziya
- Neyrotoksikoz: bosh og'rish, bosh aylanishi, paresteziyalar, mushaklar atrofiyasi, parezlar, paralichlar, eshitishning buzilishi, quloqlarda shovqin, ko'ruv nervining qaytmas zararlanishi, nistagm
- Xolestaz, toksik gepatit
- Antibiotik ta'sir (alkogolga tolerantlikning pasayishi preparat yuborishni to'xtatgandan 5-7 kun o'tgandan so'ng ham saqlanadi)

Nitrofuranlarning qo'llanilishiga qarshi ko'rsatma:

- Nitrofuranlarga nisbatan sezgirlikning ortishi
 - Yangi tug'ilgan chaqaloq va ko'krak yoshidagi bolalar
- Nitrofuranlar – qisqa muddat qo'llanilganda kam toksik preparatlar.
Bulardan furadonin nisbatan xafvli hisoblanadi.*

Nitroimidazolarning nojo'ya ta'sirlari

*(metronidazol= trixopol= flagil= metrogil= klion=tinidazol=fasijin=
ornidazol=tiberal):*

- Dispepsik o'zgarishlar (ko'ngil aynash, qusish, anoreksiya, og'izda metal yoki achchiq ta'm sezish, qorinda og'riq)
- Allergik reaksiyalar (terida toshmalar, qichima)
- Poliuriya (qisman angiotenzin-2 retseptorlarini bloklanishi)

- Teturamsimon effekt
- Nitroimidazollar uzoq muddat qo'llanilganda bo'lishi mumkin:
 - MNS jarohatlanishi (ataksiya, dizatriya, tremor, talvasalar)
 - Periferik nervlar jarohatlanishi (achishish hissi, qo'l va oyoqlarning uvishishi, paresteziyalar)
- Leykopoezning susayishi
- Kandidoz rivojlanishi natijasida ichak normal mikroflorasini buzilishi.
- Teratogen ta'sir

Nitroimidazollar qo'llanilishiga qarshi ko'rsatma:

- Teratogen ta'sir - xomiladorlikning birinchi trimestrida o'ta xavfli

Silga qarshi preparatlarning nojo'ya ta'sirlari:

Gidrazid izonikotin kislota preparatlari (GINK): izoniazid, tubazid

- Dispepsik ko'rinishlar (ko'ngil aynash, qusish)
- Bosh og'rish, bosh aylanishi
- Yurak sohasida og'riq sezish
- Allergik reaksiyalar
- Qizil yugiriksmon (volchanka) sindrom
- Eyforiya, uyquning buzilishi, psixoz
- Mushak atrofiyasi bilan periferik nevrirlar, paralichlar
- Ayrim holatlarda dorilardan gepatit, ginekomastiya, menorrhagiya

Qarshi ko'rsatma:

- GINK preparatlariga sezgirlikning ortishi
- Epilepsiya
- Og'ir psixozlar
- Talvasalarga moyillik
- Anamnezida poliomielit
- Anamnezida GINK preparatlarini qo'llashdan toksik gepatit
- O'tkir jigar va buyrak etishmovchiligi

Paraaminosalitsilat kislotasi (PASK)

- Dispepsik o`zgarishlar
- Allergik reaksiyalar (eshak emi, isitma ko`tarilishi, astmatik ko`rinishlar, Bo`g`imlarda og`riqlar, eozinofiliya)
- Agranulotsitoz
- Gipotireoz
- Qandli diabet
- Gepatit

Qarshi ko'rsatmalar:

- Jigar va buyrakning og`ir kasalliklari
- Amiloidoz
- Yara kasalligi
- Nazorat qilib bo`lmaydigan yurak etishmovchiligi
- Preparatni individual ko`tara olmaslik
- Xomiladorlik
- Emizikli davr

Etambutol:

- Dispepsik ko`rinishlar
- Bosh aylanishi, depressiya
- Allergik reaksiyalar
- Rang ajratish sezgisini buzilishi (yashil va qizil)
- Ko`rish doirasi kengligining torayishi
- Skotomalarni paydo bo`lishi

Qarshi ko`rsatmalar:

- Individual ko`tara olmaslik
- Ko`z nervining nevriti
- Katarakta
- Diabetik retinopatiya
- Ko`zning yallig`lanish kasalliklari

- 2 yoshgacha boʻlgan bolalarga

Rifampitsin:

- Allergik reaksiyalar
- MIT tomonidan (ishtahaning pasayishi, qusish, ich ketishi)
- Gepatotoksik effekt

Qarshi koʻrsatmalar :

- Xomiladorlik (gemorragiyalar xavfli)
- Jigari va buyragi kasal boʻlgan bolalar

Zamburugʻlarga qarshi vositalarning nojoʻya taʼsirlari

Imidazollar: Ketokonazol= Nizoral= Oronazol, Klotrimazol, Mikonazol, Oksikonazol

- Dispeptik buzilishlar
- Neyrotoksiklik (bosh ogʻrigʻi, karamlik, uyquchanlik)
- Jigarning zararlanishi, fatal gepatit xosil boʻlishigacha borishi mumkin
- Steroid gormonlarning biosintezini buzilishi, natijada testosteron ishlab chiqarilishi pasayadi, ginekomastiya, oligospermiya, impotentsiya (antiandrogen taʼsir xisobiga) kuzatiladi
- Yengil eritema, achishish, kichima, toshmalar chaqiradi.

Triazollar: Bifonazol, Flukonazol= Diflyukan, Itrakonazol= Orungal,

Diflyukan:

- Dispeptik buzilishlar.
- Transaminazaning faolligini koʻtarilishi.
- Teridatoshmalar(qoʻllashnitoʻhtatishzarur).

Orungal:

- Bosh ogʻrishi.
- Dispeptik oʻzgarishlar

Orungal yuqori dozalarda (0,4-0,6 g/kuniga koʻproq) qoʻllanilganda kelib chiqishi mumkin:

- Suv - elektrolit buzilishlari (gipokaliemiya, shishlar);
- Arterial gipertenziya;
- Buyrak usti bezi yetishmovchiligi.

Allilaminlar: Terbinafinq = Lamizil, Naftifin

- MIT: dispeptik va dispepsik buzilishlar, ta'm sezishning buzilishi.
- Bosh og`rishi.
- Terida: qitiqlanish, achishish, qichish.

Turli kimyoviy guruxga kiruvchi zamburug`larga qarshi preparatlar:

Grizeofulvin, Flutsitozin=Ankotil, Xlornitrofenol, Kaliy yodid

Ankotil:

- MIT – dispeptik va dispepsik buzilishlar, ayrim hollarda og`ir enterokolit.
- Neyrotoksiklik–bosh og`rishi, bosh aylanishi, korahtlik, gallyutsinatsiyalar, talvasalar.
- Gematotoksiklik - leykopeniya, trombositopeniya (ko`pincha buyrak faoliyati buzilganda va amfoteritsin V bilan birga qo`llaganda).
- Adabiyotda ko`rsatilishicha agranulotsitoz va fatal aplastik anemiyalar kelib chiqishi mumkin.

Nazorat meyorlari: haftasiga 2 marta qonda leykotsitlar va trombositlarni miqdorini aniqlash.

- Gepatotoksiklik (jigarning og`ir jarohatlanishigacha).

Oldini olish:

